



RAMZIY MA'NO VA UNING O'RGANILISHI

Muxammadaliyeva Shaxzoda Maxmud qizi

ToshDO'TAU o'qituvchisi

muhammadaliyeva2696@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10691048>

ARTICLE INFO

Received: 15th February 2024

Accepted: 21th February 2024

Online: 22th February 2024

KEYWORDS

Ramz, san'at, xususiyat, timsol, vosita, semantika, madaniyat.

ABSTRACT

Ramz va ramziy ma'no masalalari haqidagi qarashlar qadimdan insoniyatni qiziqtirib kelgan. Aynan shu qiziqishlar bois uning o'rganilishiga ham alohida ahamiyat berilmoqda. Ushbu maqolada ramziy ma'no va unig o'rganilishiga doir nazariy qarash va tahlillar o'rin olgan. Maqoladan ko'zlangan maqsad ramziy ma'noning xorij va o'zbekistonlik olimlar tomonidan o'rganilishi, u haqidagi yangi nazariy fikrlarni yoritish va ularni ilm ahliga yetkazib berishdir.

Kirish

G'arbda ramz masalasini nisbatan erta tizimli o'rgangan nemis olimi Hegeldir. U falsafa va san'at nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda insoniyatga xos san'atni ramziy, klassik hamda romantik kabi uchta turkumga ajratdi. Ular ichidan ramzlar turkumiga xos san'atni insoniyatning eng dastlabki san'ati deya baholadi. Shu sababdan ham Hegel ramzlarni "san'atdan oldingi san'at" (verkunst), "san'atning tayyorgarlik bosiqichi" deb ta'kidlaydi¹. Chunki insoniyat qadimgi davrlardan atrofida narsalarga qarab, ularni ramziylashtirgan.

Hegel ramz faoliyatining insoniyat ruhiyatini mashq qildirish bosqichi ekanligiga urg'u berib, unga epistemologik (bilish nazariyasi) nuqtayi nazardan yondashadi. Shu sabab ham u ramzni tafakkur tarzi, bilishning bir ko'rinishi sifatida ta'kidlaydi².

Asosiy qism

Xorijiy sotsiologiyada (T.Parsons, A.Schutz, N.Elias) ramzga ijtimoiy voqelikning asosiy elementi sifatida qaraladi. H.Duncan ramzda ijtimoiy guruhlarining ijtimoiy integratsiyalashuvining asosiy mexanizmini ko'radi. Madaniyatlararo timsollarning tipologiyasi va funksiyalari muammosi A.F.Losev, N.N.Rubtsov, N.Elias va boshqalar tomonidan o'rganilgan³.

Rus fanida ramzlar muammosi rivojlanishining boshida A.Beliy, E.N. Trubetskoy, P.Florenskiy kabi mashhur rus mutafakkirlari turgan. Muammoga doir jiddiy nazariy va

¹ Очилов О. VII-X асрлар танг даври шеърлятида рамзлар семантикаси: Филол. фан. бўйича фалсафа док....дисс. – Тошкент, 2018. – Б. 17.

² Очилов О. VII-X асрлар танг даври шеърлятида рамзлар семантикаси: Филол. фан. бўйича фалсафа док....дисс. – Тошкент, 2018. – Б. 17.

³ Юлия Т. Символ в межкультурной коммуникации. Автореферат доктора философских наук. - Ростов-на-Дону, 2008. – С. 6.



uslubiy ishlar mualliflari V.I.Antonov, S.S.Averintsev, E.N.Rubtsov. Bu yerda alohida o'rin Moskva-Tartu semiotik maktabi vakillari Y.M.Lotman, N.L.Muskhelishvili, V.N.Toporov va boshqalarning ilmiy asarlarida ramz madaniyatning asosiy razmiy vositalardan biri hisoblanadi. Golosovkera, N.D.Arutyunova, B.A.Uspenskiy va boshqalar ramz dunyolar orasidagi chegara chizig'i rolini o'ynaydi deb hisoblaydi⁴.

Ramzlarning har xil turlarini A.A.Potebnya, B.A.Rybakov, V.N.Toporov (mifologik belgilar), D.Skorupski, I.Vardenburg, M.M.Kasperavichyus, Tyornerde (diniy ramzlar), J.Xall, E.G.Yakovlev (badiiy ramzlar), Y.Karpov, M.B.Plyuxanova, S.D.Sulimenko (etnik belgilar), O.A.Karmadonov, I.V.Mostovaya, Z.P.Sikevich

(ijtimoiy ramzlar), E.V.Zazykina, D.N.Zamyatin, D.A.Misyurov (siyosiy ramzlar), V.V.Pokhlebin, V.Saprykov, V.A.Soboleva (davlat ramzlari) lar o'rgangan⁵.

J.Vardenburg, Koldemich, D.Fontana va boshqalarning asarlarida ramz turli olamlar o'rtasida vositachi deb ta'riflangan. Freyd. E.Fromm, Y.Kristev va boshqalar ramzni shaxs psixikasi va madaniyatida ongsiz tamoyillarning namoyon bo'lishining yagona bilvosita imkoniyati deb hisoblaydilar. Kollektivda ongsizlikning universal tasvirlari-ramzlari (arxetiplari) mavjudligi haqidagi Yungning g'oyalari katta qiziqish uyg'otgan. G'arbdagi ramz tushunchalarining rivojlanishiga E.Kassier, T.Todorov, A.Uaytxed, J.Bodriyar va boshqalarning asarlari katta ta'sir ko'rsatdi⁶.

Ingliz olimi E. B. Taylor ramzlarni sodda va murakkab turkumga ajratadi. Eng ibtidoiy – turli shakllar, ovozlar, qo'l harakatlari va boshqalari sodda ramzlarga mansub bo'lsa, murakkab ramzlar turkumini ibodat marosimlari va madaniy mazmunga ega turli buyumlar, rasm-rusumlar tashkil qiladi⁷.

Y.Lotman ramz haqida quyidagi fikrlarni bildirgan: "O'zida aloqador bo'lgan o'tmish xotiralarini kondensatsiyalashtira olgan va asragan hamda qayta yuzaga chiqadigan barcha belgilar ramzdir"⁸. Ramzning madaniy xotira vazifalarida namoyon bo'lishi asosan uch xil ko'rinishga ega:

- ramz yuqori darajada kondensatlashish salohiyatiga ega, u o'zining zichlash usulidan foydalanib, katta miqdordagi madaniy ma'lumotni saqlay oladi hamda umumqadriyatlar va qonuniyatlarni mujassamlashtiradi;

- u mustaqil ravishda migratsiya qilish xususiyatiga ega. U yangi kontekstda turli zahirada turgan ma'lumotlarni qayta jonlantiradi, muayyanlashtiradi, baholaydi hamda o'tmish, hozir va kelajak o'rtasida ko'priq vazifasini o'taydi;

- ramz yaqqol yaratish xususiyatiga ega. U insoniyatning tasavvur, yaratuvchanlik va bashorat qilish kuchlariga tayangan holda to'xtovsiz ravishda o'zining xotira omborini yangilab, yangi madaniy mazmunni yuzaga chiqaradi.

⁴ Саранчева Н. Символ как социокультурный феномен. Автореферат диссертация кандидата философских наук. – Волгоград, 2007. – С. 4.

⁵ Юлия Т. Символ в межкультурной коммуникации. Автореферат доктора философских наук. - Ростов-на-Дону, 2008. – С. 6.

⁶ Саранчева Н. Символ как социокультурный феномен. Автореферат диссертация кандидата философских наук. – Волгоград, 2007. – С. 5.

⁷ Очилов О. VII-X asrlar tang davri she'riyatida ramzlar semantikasi: Filol. fan. b'yiicha falсафа док....дисс. – Тошкент, 2018. – Б. 20.

⁸ Лотман Ю.М. Семиосфера. - Санкт-Петербург: Искусство - СПб, 2001. - С. 617.



Ochilov Ozodjon o'zining "VII – X asrlar tang davri she'riyatida ramzlar semantikasi" dissertatsiyasida ramziy ma'nolar haqidagi nazariy qarashlar, ularning yuzaga kelish omillari, badiiy adabiyotga kirib kelishi, Tang davri she'riyatida ramzlar semiotikasi haqida to'xtalib, ramzlarni g'oyaviy-badiiy va falsafiy qarashlar kesimida tahlil qilgan. Shuningdek, ramziy obrazlarni tilshunoslik nuqtayi nazaridan talqin qilish masalasiga ham e'tibor qaratgan, dissertatsiyaning III bobi "Tang she'riyatida "Oy" va "may" ramzlari semantikasi" deb nomlanib, unda "Oy va may" ramziy obrazining ma'no talqinlari, Li Bay she'rlaridagi ramziy obrazlar semantikasi ham alohida tahlil etilgan. U ramzlarning inson xotirasi bilan bog'liqligi, boy madaniy ma'lumotlarni saqlab kelishi, ramziy so'zlar anglatuvchi ma'nolar asosan xalqning his-tuyg'ulari, hayotiy qarashlari, o'y-fikrlari, estetik ko'nikmalarining mujassamlashuvi ekanligini qayd etgan⁹.

Jumatova Nasiba "Hozirgi o'zbek she'riyatida rang bilan bog'liq ramziy obrazlar" dissertatsiyasida rang bilan bog'liq ramziy obrazlar tarixiga nazar tashlab, o'zbek she'riyatida rang bilan bog'liq ramziy obrazlarni yoritgan. U ramzni voqelikni jonli mushohada qilish orqali vujudga kelgan tasavvurdan iboratligi, ramz voqelikning in'ikosiligi, ramz – she'rdagi badiiy g'oyani yashiruvchi, sir pardasiga o'raydigan vosita, rang esa ana shu yashirin g'oyani chuqurlashtiruvchi va yo'naltiruvchi ramzligini misollar orqali tahlil qilib bergan¹⁰.

Jumayeva Sofiya esa ramzning ma'no bo'laklarini to'g'ri tushunish uchun xalqning madaniyati, diniy qarashlari va urf-odati bilan yaqindan tanishib, diniy-irfoniy istilohlar lug'atidan foydalanish kerakligi, bo'lmasa bu ramzlar o'quvchi uchun tilsimligicha qolishini yozadi. Ramzlar muayyan bir toifadagi kishilarning yashirin aloqa vositasi ekanligi, yashirin sirlarni bir-biriga yetkazish vositasi – razmlarning vujudga kelishiga sabab bo'lganligini aytadi¹¹.

Qurbonova Dilnoza o'zining "Tilshunoslikda ramziy ma'nolarni tushunishning o'ziga xos ahamiyati" maqolasida ramzning quyidagi jihatlarini ajratib ko'rsatish o'rinli deya yozadi:

- falsafiy jihatdan, ramz tafakkur mahsuli va tafakkur ramzda aks etadi (germenevtik aylana tarzida);
- germenevtik jihatdan, har qanday ramz ma'lum bir ma'noni ifoda etadi, uni tushuntiradi;
- gnoseologik jihatdan, ramzni ma'lum kishilar (turli ijtimoiy guruh va qatlamlar) o'z bilim darajasi va bilish miqyoslari darajasida yaratadi va anglab yetadi;
- ontologik jihatdan, butun borliq ramzlardan tashkil topadi;
- psixologik jihatdan, ramzda doim muayyan ruhiyat va kayfiyat mavjud;
- sotsiologik jihatdan, ramz doim ijtimoiy xarakterga ega;
- aksiologik jihatdan, ramz qadriyat darajasida namoyon bo'ladi. Ramzning belgidan asosiy farqi shundaki, unda obyekt (yoki element) borliqdagi kabi aynan emas, balki ma'joziy-obrazli shaklda ifodalanadi va insonlar tomonidan yaratiladi hamda u doim

⁹ Очиллов О. VII-X асрлар танг даври шеърлятида рамзлар семантикаси: Филол. фан. бўйича фалсафа док....дисс. – Тошкент, 2018.

¹⁰ Жуматова Н. Ҳозирги ўзбек шеърлятида ранг билан боғлиқ рамзий образлар: Филол. фан. ном.... дисс. – Тошкент, 2000.

¹¹ Жумаева С. Ўзбек мумтоз шеърлятида рақам рамзлари ва уларнинг маъно талқини (XII-XV асрлар). Филол. фан. ном.... дисс. – Тошкент, 2006.



konsensus –inson kelishuvi, hamfikrligiga tayanadi. Belgi esa, mavjud bo'lishi uchun konsensusga muhtoj emas¹².

Surayyo Hakimova maqolasida ramzlarni D.Bordon quyidagicha bo'lganini yozadi:

- tasviriy simvollar – umumlashtirilgan shaklni ko'rsatadigan haqiqiy dunyoga qo'llaniladigan tasvirlar, piktogrammalardan iborat;
- funksional simvollar – elementlarning funksiyasiga asoslangan aniq bir faoliyatni ifodalaydi. Masalan: chodir – lagerni yoki ot – poygani ifodalaydi;
- konseptual simvollar – bevosita ifodalangan xususiyat tushunchani namoyish etadi: "Dovud yulduzi" – yahudiy ibodatxonasining ramzi;
- ogohlantiruvchi belgilar – xaritani o'qiydiganlar yoki yo'lovchilar uchun juda samarali bo'lib, ularning manzilini osongina topish yoki yo'lda konvensiyalarni farqlash imkonini beradi: qizil chiziq – magistral yoki taqiqni, xoch – kasalxonani ifodalaydi; - abstrakt yoki geometrik belgilar muayyan xususiyatni ifodalovchi ixtiyoriy shakllardir¹³.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, ramz va ramziy ma'noni o'rganish ham jahon, ham o'zbek tilshunosligida o'ziga xos o'ringa ega. Ularni o'rganib tahlil qilish ramzning yangidan yangi qirralari va xususiyatlarini ochishga yordam beradi.

Tildagi ramz va uni ifodalovchi so'zlar, birikmalar madaniyat ifodachisi hisoblanadi. Ular ma'lum bir voqelikni va holatni yorqinroq ifodalaydi. Ular orqali milliy o'zlik, borliqqa munosabat namoyon bo'ladi.

Ramz orqali anchayin keng miqyosli voqelarni yaxlitlashirish mumkinligi o'zining isbotini topyapti. Shu bilan birgalikda unda bo'rttirish, yorqinroq aks ettirish ham ifodalanadi.

References:

1. Hakimova S. Timsol va uning madaniyatlararo muloqotdagi ahamiyat// Til va adabiyot ta'limi. 2022, №12.
2. Qurbonova D. Tilshunoslikda ramziy ma'nolarni tushunishning o'ziga xos ahamiyati. FRANCE international scientific-online conference: "SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM". PART 12, 5th FEBRUARY.
3. Жумаева С. Ўзбек мумтоз шеъриятида рақам рамзлари ва уларнинг маъно талқини (XII-XV асрлар). Филол. фан. ном.... дисс. – Тошкент, 2006.
4. Жуматова Н. Ҳозирги ўзбек шеъриятида ранг билан боғлиқ рамзий образлар: Филол. фан. ном.... дисс. – Тошкент, 2000.
5. Лотман Ю.М. Семиосфера. - Санкт-Петербург: Искусство - СПб, 2001.
6. Очилов О. VII-X асрлар танг даври шеъриятида рамзлар семантикаси: Филол. фан. бўйича фалсафа док....дисс. – Тошкент, 2018.
7. Саранчева Н. Символ как социокультурный феномен. Автореферат диссертация кандидата философских наук. – Волгоград, 2007.

¹² Qurbonova D. Tilshunoslikda ramziy ma'nolarni tushunishning o'ziga xos ahamiyati. FRANCE international scientific-online conference: "SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM". PART 12, 5th FEBRUARY. – B. 46.

¹³ Hakimova S. Timsol va uning madaniyatlararo muloqotdagi ahamiyat// Til va adabiyot ta'limi. 2022, №12. – B. 38.



8. Юлия Т. Символ в межкультурной коммуникации. Автореферат доктора философских наук. - Ростов-на-Дону, 2008.